O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Andijon shaxar, Abdurauf Fitrat ko’chasi 239-uy

2023 - yil 26 - iyul 196-1-0-Q/23 Andijon viloyati hokimligi

Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflarini o‘zgartirish yuzasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 noyabrdagi “Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish uchun to‘lovlarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5580 sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95 sonli qaroriga asosan shahar va tumanlar hududidagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitar holatini yanada yaxshilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan;

Q A R O R Q I L A M A N

1. Andijon viloyati ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2023 yil 16 martdagi 01-03/1-500 sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Andijon viloyati xalq deputatlari kengashining 2022 yil 12 avgustdagi VI-40-94-1-0-K/22 sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hududlaridan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lov, shuningdek yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflari viloyat bo‘yicha yagona narxlar bir kishiga 1 oyga 3 500 (uch ming besh yuz) so‘m etib belgilansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi (U.Jo‘raev)ga

yuqoridagi o‘rnatilgan tariflarning to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qarori qabul qilinishi munosabati bilan 2019 yil 5 apreldagi 159-q sonli viloyat hokimining qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Viloyat hokimining matbuot kotibi M.Ibroximov mazkur qarorni tegishli ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy nashrlarida e’lon qilish choralarini ko’rsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinganidan so‘ng kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari D.Karimov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari I.Xolmatov zimmalariga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**